



UDK:314.8 (575.1)

Zulxumor TOJIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori
E-mail: z_tadjieva@mail.ru
Muazzam SABIROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mua1993.10@mail.ru

O'zMU dotsenti, g.f.n. M.Egamberdiyeva taqrizi asosida

ОСНОВНЫЕ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ И РАЗМЕЩЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ СИЛ

Аннотация

Развитие и развертывание производительных сил требует накопления определенных знаний и информации о регионах страны. Следовательно, необходимость изучения уровня экономического развития региона, его природных, демографических, материальных условий и возможностей при эффективном и рациональном размещении производственных предприятий привела к отделению экономической географии от географии и ее развития, как отдельная самостоятельная наука. Если наука «Естественная география» изучает природные процессы и события, происходящие в географической коре, то наука «Экономическая география» изучает особенности и закономерности регионального развития производства, в частности, производительных сил. Статья посвящена анализу закономерностей, факторов и принципов развития и размещения производительных сил, составляющих основу экономической географии.

Ключевые слова: Международное разделение труда, Международная экономическая интеграция, Валовый национальный продукт, топливо и энергия, сырье, экономическая география, география отраслей, экономическая география регионов.

BASIC CONCEPTS OF DEVELOPMENT AND PLACEMENT OF PRODUCTION FORCES

Annotation

The development and deployment of productive forces requires the accumulation of certain knowledge and information about the regions of the country. Consequently, the need to study the level of economic development of the region, its natural, demographic, material conditions and opportunities with efficient and rational placement of production enterprises led to the separation of economic geography from geography and its development as a separate independent science. If the science of "Natural Geography" studies natural processes and events occurring in the geographical crust, then the science of "Economic Geography" studies the features and patterns of regional development of production, in particular, productive forces. The article is devoted to the analysis of patterns, factors and principles of development and distribution of productive forces that form the basis of economic geography.

Keywords: International division of labor, International economic integration, Gross national product, fuel and energy, raw materials, economic geography, geography of industries, economic geography of regions.

ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Annotatsiya

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va uni joylashtirish mamlakat hududlari to'g'risida ma'lum bilimlarni va ma'lumotlarni to'plashni talab etadi. Binobarin, ishlab chiqarish korxonalarini samarali va oqilona joylashtirishda hududning xo'jalik jihatdan o'zlashtirilganlik darajasini, uning tabiiy, demografik, moddiy shart-sharoitlarini va imkoniyatlarini o'rganish ehtiyoji iqtisodiy geografiya fanini geografiya fanidan ajralib chiqishiga va alohida mustaqil fan sifatida rivojlanishiga olib keldi. Agar "Tabiiy geografiya" fani geografik qobiqda kechayotgan tabiiy jarayonlarni va hodisalarni o'rgansa, "Iqtisodiy geografiya" fani esa ishlab chiqarishni, xususan, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlanish xususiyatlarini va qonuniyatlarini tadqiq etadi. Mazkur maqolada aynan iqtisodiy geografiyaning asosi bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish qonuniyatlari, omillari va tamoyillarining tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro mehnat taqsimoti, Xalqaro iqtisodiy integratsiya, Yalpi milliy mahsulot, yoqilg'i-energetika, xom ashyo, iqtisodiy geografiya, tarmoqlar geografiyasi, mintaqalar iqtisodiy geografiyasi.

Kirish. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishning o'ziga xos jihatlari o'rganadigan iqtisodiy geografiya fani uchun har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida va uning ishlab chiqarish kuchlarining joylashishidagi qonuniyatlar, omillar, tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlar muhim hisoblanadi. Iqtisodiy geografiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish umumiy iqtisodiy geografiya, tarmoqlar geografiyasi, mintaqalar iqtisodiy geografiyasi va jahon xo'jaligi geografiyasi bevosita tabiat, ya'ni tabiiy geografiya bilan chambarchas bog'liqdir. Shu o'rinda tabiatning ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishda, xo'jalik yuritish va aholining turmush tarzida turlicha hududiy tafovutlarda namoyon bo'lishini qonuniyatlarini keltirish o'rinli.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Z.T.Abdalova, Z.N.Tojievlar tomonidan yozilgan "Iqtisodiy geografiya" o'quv qo'llanmasida "Geografiya fanining rivojlanishi qadimgi Antik davrida mamlakatlar o'rtasida hududiy (geografik) mehnat taqsimoti, ya'ni har bir hududning o'ziga xos tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy geografik o'rni, xalqlarning urf-odatlar va

an'anlari asosida ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashishi va ular o'rtasida tovar ayirboshlash jarayonining shakllanishi davriga borib taqaladi" [2] deb iqtisodiy geografiyaning rivojlanishini baholashadi.

A. Soliyevning "Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot" kitobida "iqtisodiy geografiya" tushunchasini dastlab buyuk rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrning 60-yillarida ishlatgan. Lekin fan sifatida keyinchalik boshqalar tomonidan yaratilgan [5]ligi keltiriladi.

Vavilova E.V. "Экономическая география и регионалистика" kitobida Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosiy ilmiy yo'nalishlarida, mamlakat iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish va sanoatlashtirish maqsadida iqtisodiy rayonlashtirish va yangi hududiy ishlab chiqarish majmualarni tashkil etishning nazariy masalalarini yaratishga katta e'tibor qaratiladi. SHu davrda E.V Vavilovanning "Экономическая география и регионалистика" asarida "iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga G.M.Krjijanovskiy, I.G.Aleksandrov, YU.G.Saushkin va N.N.Baranskiylar va qator olimlar katta hissa qo'shadi va o'zlarining ilmiy maktablarini yaratishganligi"ni ko'rsatadi[3].

M.M.Golubchik, E.L.Faybusovich, A.M.Nosonov, S.V.Makarning "Экономическая и социальная география" darsligida, N.N.Baranskiy iqtisodiy geografiyada majmualilik tamoyilini va unda tizim tushunchasiga to'xtalib o'tadi, E.B.Alaev N.N.Baranskiy g'oyasini rivojlantirgan holda geografiylik mezoniga globallashuv mezonini qo'shadi va uni lokal, mintaqaviy, milliy, zonal shaklda tadqiq etishni taklif etadi[5].

Y. G. Saushkin iqtisodiy geografiyani hududiy iqtisodiy- ijtimoiy tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va ixtisoslashuvi va bu jarayonlarni boshqarish jarayonlari haqida fandir, deb baholaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatlar o'rtasida hududiy mehnat taqsimotining shakllanishi geografiya fanlari tizimida dastlab iqtisodiy-geografik tadqiqotlarni vujudga kelishiga olib keladi. Qadimgi yunon olimi Strabon o'zining o'n etti tomlik «Geografiya» deb nomlangan asarida, aholining hududiy joylashuvi, mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi tovar ishlab chiqarish va savdo sotiq aloqalarini yoritadi.

O'rta asrlarda, jahon mamlakatlarida natural xo'jalik hukm surgan davrda, antik davrda olib borilgan iqtisodiy geografik izlanishlar bir oz sustlashadi. Ma'lumki, Buyuk Geografik kashfiyotlar xalqaro savdo va ilk kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bu davrda hududiy mehnat taqsimotining chuqurlashishi va jahon xo'jaligining shakllanishi, o'z navbatida, iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishini talab etadi. Mamlakatlar va ularning hududiy birliklari haqidagi iqtisodiy geografik tavsif g'arbiy evropalik olimlarning asarlarida o'sha davrlarda juda chuqur talqin etilgan.

Agar "Tabiiy geografiya" fani geografik qobiqda kechayotgan tabiiy jarayonlarni va hodisalarni o'rgansa, "Iqtisodiy geografiya" fani esa ishlab chiqarishni, xususan, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlanish xususiyatlarini va qonuniyatlarini tadqiq etadi.

«Iqtisodiy geografiya» atamasini fanga dastlab rus olimi M.V. Lomonosov tomonidan 1760-yillarda kiritiladi va keyinchalik butun dunyoda e'tirof etiladi. Olimning asosiy g'oyasida e'tibor, iqtisodiyotni rivojlanishida mamlakatni iqtisodiy geografik nuqtai-nazardan tadqiq qilish g'oyat muhim va zarurligiga qaratiladi, shuningdek hududlarning xo'jaligini o'rganganda davriylik jihatdan o'rganish va tabiiy resurslarni o'zlashtirish masalalariga alohida e'tibor beradi.

G'arbiy Evropa mamlakatlarida XVIII asrning yarmida iqtisodiy geografiya fanining ilmiy maktablari Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniyada shakllanadi va rivojlanadi. O'sha davrlarda iqtisodiy geografiya faniga nemis olimi A.Gumbold, K.Ritter, I.Tyunen, K.I. Arsenyev, G.M.Krjijanovskiy, I.G.Aleksandrov, Yu.G.Saushkin va N.N.Baranskiy kabi qator olimlar juda katta hissa qo'shishgan. Bular iqtisodiyotni qo'tarish nuqtai-nazaridan, hududlardagi mahalliy yoqilg'i resurslari asosida yirik elektrostansiyalarni qurish va ularning negizida metallurgiya, mashinasozlik, ximiya sanoati tarmoqlarini shakllantirishga qaratilgan edi.

Tahlil va natijalar. Tabiatning asosiy unsurlarini tabiiy sharoit va tabiiy resurslar tashkil etadi. Holbuki tabiiy sharoit va tabiiy resurslar barcha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada tadqiqot ishini olib borayotgan tadqiqotchilar mazkur tabiiy sharoit va tabiiy resurs ma'zmun mohiyatini uning iqtisodiy geografiya fanidagi rolini yaxshi bilishmaydi. SHu o'rinda mazkur tushunchalarning mazmuni ustida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz, deb bilamiz.

Tabiiy resurs—bu tabiatning shunday elementiki, ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishda bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Bunga, yoqilg'i energetika, metall va nometall, er, suv, o'simlik, hayvon va hokazo resurslar kiradi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy geografik jihatdan baholash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1.Tabiiy resurslarni miqdor jihatdan baholash. Bunda tabiiy resurslarning havzadagi hajmi, geologik zahirasi va havzaning o'zlashtirish muddati aniqlanadi. Masalan, neft million tonnada, yog'och esa kub metrda o'chanadi.

2.Texnologik baholash. Bunda tabiiy resurslarning sifati, tabiiy resursning foydaliligi, tarkibi va havzaning o'zlashtirilish qulayligi darajasi baholanadi. Tabiiy resurslarni texnologik baholash natijasida, "o'zlashtirish yaroqli", "o'zlashtirilish yaroqliligi cheklangan" va "yaroqsiz" havzalarga guruhlanadi.

3.Iqtisodiy baholash. Tabiiy resurslarning iqtisodiy baholanishi deganda, u yoki bu tabiiy resursning bozor iqtisodi sharoitida jahon va ichki bozorlardagi narx-navodan kelib chiqqan holda, uning qiymatini aniqlash tushuniladi.

Tabiiy sharoit—bu tabiatning shunday elementiki, ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi, biroq bu elementning ishtirokisiz ishlab chiqarish vujudga kelmaydi. Bunga, quyosh energiyasi, namlik, atmosfera havosi, iqlim sharoiti, relyef va hokozalar kiradi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining ma'lum bosqichlarida ishlab chiqarishni hududiy taqsimlanish tamoyillari ham muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillarini xo'jalikni yuritish metodlari sifatida ham qo'rish mumkin [9].

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qo'yidagi tamoyillarga asoslanadi:

A) Ishlab chiqarishni xom ashyo, yoqilg'i, energiya manbalari va iste'mol rayonlariga joylashtirish. Bu tamoyilning amalga oshishi nooqilona jihatdan uzoq masofalarga yuk tashish xarajatlarining qisqarishiga va bartaraf etilishiga, ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha mehnat xarajatlarini pasayishiga va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi.

B) Birinchi navbatda, eng samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tamoyili bozor iqtisodiyoti davrda juda muhimdir. Masalan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan boy neft va gaz zahiralarni qazib olish asosida

yoki Toshkent viloyatidagi rangli metall konlari asosida hududiy ishlab chiqarish majmualarini (klasterlarni) tashkil etish va rivojlantirish shular jumlasidandir.

V) Ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza etish va tabiatdan oqilona foydalanishda samarali tadbirlarni qo'llash.

G) Xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan keng foydalanish, uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish. Chunki, har bir mamlakatni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirilishi halqaro mehnat taqsimoti doirasi amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omillari deganda, ma'lum bir guruh xo'jalik obyektlariga, tarmoqqa yoki mamlakat xo'jaligi tarkibini hududiy tashkil etilishiga, iqtisodiy rayonlarga, shuningdek hududiy-ishlab chiqarish majmualarning (klasterlarni) oqilona va samarali joylashishiga ta'sir etuvchi majmualar shart-sharoitlar tushuniladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omillariga quyidagilar kiradi:

A) xom ashyo omili. Bir xil sanoat tarmoqlarini joylashtirish bevosita xom ashyo manbalari bilan bog'liq. Bu sanoat guruhlariga neft, ko'mir, gaz, temir ruda va rangli metall rudalarini qazib olish, o'rmon sanoati tarmoqlari kiradi.

B) Yoqilg'i-energetika omili. Bu omil ko'pgina tarmoqlarni joylashishida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, temir qotishmalarini, alyuminiy, magniy, mis, qo'rg'oshin, nikel, sintetik ammiak va tola, kauchuk mahsulotlarning ishlab chiqarishida juda katta miqdorda yoqilg'i va energiya sarf qilinadi.

V) Suv omili. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot birligiga sarf bo'ladigan suv miqdori suv talab tarmoqlarni belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Suv sarfi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning sohasiga sanoat kiradi, xo'jalikda sarflangan suvning 40% aynan shu sohaga to'g'ri keladi.

G) Demografik omil. Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashuvida bu omil katta ahamiyatga ega. Binobarin, alohida tarmoqlarni va korxonalarning joylashuvida va ishlab chiqarish sur'atlarini o'sishida hududlarning demografik vaziyati e'tiborga olinmog'i zarur va muhimdir. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot birligiga sarf bo'ladigan ishchi kuchining soni tarmoqni mehnat talablilik mezonini aniqlab beradi [8].

Hozirgi davrda respublikada aholining hududiy joylanishuvida keskin tafovutlar yuzaga kelgan, aholining zichligi bo'yicha Farg'ona vodiysi viloyatlari, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilmoqda. Aholi zich joylashgan respublikaning [8] hududlarida mehnatni ko'p talab etadigan to'qimachilik korxonalarini joylashtirilsa, yuqori malakali mehnat resurslari mavjud bo'lgan hududlarda esa mashinasozlikni radiotexnika, elektrotexnika, priborsozlik korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

D) Transport omili. Mamlakatning iqtisodiy rayonlari va markazlar bilan aloqalarni o'rnatishda, tabiiy resurs havzalarini o'zlashtirilishida, mamlakatni iqtisodiy -geografik o'rni yaxshilashda, shuningdek mamlakat xo'jaliginini hududiy jihatdan takomillashtirishda transport omilining ahamiyati juda beqiyosdir.

E) Iste'mol omil. Bu omil ishlab chiqarilayotgan mahsulotni saqlanish muddati qisqa bo'ladigan (tez buziladigan) yoki transport harajatlari yuqori bo'ladigan tarmoqlarni joylashishda muhim bo'lib, qo'pincha, non va non mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarishida va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega.

J) Fan-texnika taraqqiyoti omili. Hozirgi davrda mamlakat xo'jaligini hududiy tashkil etishining takomillashuvi va mehnat unumdorligini oshirishida fan-texnika taraqqiyotining natijalarini robot texnikasini, egiluvchan avtomatlashgan ishlab chiqarishni, rotor va rotor-liniyalarni qo'llanilishida juda muhimdir.

Z) Ekologik omil. Ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishda atrof muhitga salbiy ta'sirni pasayishida, tabiiy resurslardan unumli va samarali foydalanishda va mintaqalarni majmuali rivojlanishida bu omilning roli katta.

Ishlab chiqarish kuchlarining asosiy unsurini inson tashkil etadi, chunki har qanday moddiy boylik ishlab chiqarish jarayoni insonning ta'sir-siz faoliyat yurita olmaydi, ma'lum bir qo'nikmaga, tajribaga, ixtisoslikga, malakaga, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan aholi mehnat resursini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish alohida qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bu qonuniyatlar ishlab chiqarish kuchlari va hudud o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Hozirgi davrda iqtisodiyotni rivojlanish holati, o'z navbatida, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish samaradorligini oshirilishida, ya'ni, birinchidan, tabiiy resurs salohiyotidan samarali foydalanish natijasida (maksimal darajada foyda olish, mahsulot tannarxini kamaytirish) bo'lsa, ikkinchidan esa, aholining yashash muhitida ekologik vaziyatni yaxshilash bilan bevosita bog'liq. SHu bilan birga, tabiiy resurslardan majmuali foydalanish hamda xom ashyo va yoqilg'i resurslardan foydalanganda chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Алисов Н. В., Хореев Б. С. Экономическая и социальная география мира (общий обзор). - М., 2001.
2. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иктисодий география. Ўқув қўлланма.- Т.: «ИҚТISODMOLIYA», 2013. Б. 11-17.
3. Вавилова Е.В. Экономическая география и регионалистика. 2 изд, перераб. и доп.-М.:Кнорус, 2011.
4. Солиев А. Иктисодий география: назария, методика ва амалиёт (танланган асарлар). Т., 2013. Б.180.
5. Голубчик М.М., Файбусович Э.Л., Носонов А.М., Макаров С.В. Экономическая и социальная география: Основы науки: 340 Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Туманит, изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 400 с.:
6. Чистобаев А. И., Шарыгин М. Д. Экономическая и социальная география: новый этап. - Л., 1990. - С. 16-17.
7. Tojiyeva Zulkhumor Nazarovna, Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, The Socio-Economic Aspects of Demographic Development of Rural Areas of The Republic of Uzbekistan. *Australasian Journal of Regional Studies, Special issue, 2021.pp.4-18.*
8. Tojiyeva Z.N., Dusmanov F.A., Ibragimov L.Z. (2020). *Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features. International journal of scientific & technology research.* 9, (1), 4096-4100. <http://www.ijstr.org/paper-references.php?ref=IJSTR-0120-29731/>.
9. Tojiyeva Z.N., Komilova N.K., Mukhammedova N.Z., Nazarov M.I., Egamberdiyeva U.T. (2019). *Territorial Definitions of Population Mortality in Uzbekistan.* ASTRA SALVENSIS. 1, (9), 619-641. <https://www.researchgate.net/publication/338159681>.